

**ABDULLA QODIRIY ROMANLARIDAGI JONLANTIRISH VA TASHXIS
TASVIR USULLARI****URAK PAZILOVICH LAFASOV***Dotsent, Toshkent davlat sharqsunoslik universiteti***MARXABO RAXMONKULOVA ABDULLAYEVA***PhD, Toshkent davlat sharqsunoslik universiteti***Annotatsiya**

Ushbu maqolada o'zbek milliy romanchiligining asoschisi Abdulla Qodiriy romanlaridagi jonlantirish va tashxis tasvir usullarini qo'llanishi xususida ilmiy izohlar bayon qilingan. Yozuvchining o'zbek xalq og'zaki ijodi, ya'ni dostonlarda uchraydigan ko'pgina badiiy san'at usullarini nasrga olib kirganligiga masalasiga urg'u berilgan. So'z ustasining o'sha paytgacha badiiy san'atlar faqat she'riyatga tegishli ekanligini xususidagi ilmiy qarashlarni dalillar orqali rad etganligi aytilgan. Shuningdek, turkiy til, jumladan o'zbek tili dunyoning ilk uch tildan biri va undagi badiiyat o'zgacha ekanligi to'g'risidagi fikrlar bayon qilingan. Shu asnoda Abdulla Qodiriyning Alisher Navoiy hazratlaridan so'ng o'zbek tilining badiiy mavqeyini amalda yuqori darajaga olib chiqqanligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: *Abdulla Qodiriy, milliy roman, jonlantirish, tashxis, tasvir usullari, badiiy san'atlar, she'riyat, nasr.*

Аннотация

В данной статье проведен анализ использования изобразительных приемов олицетворения и одушевления в романах основоположника узбекского национального романизма Абдулла Кодиря. Особое внимание автор статьи уделяет вопросу использования писателем в своих прозаических произведениях изобразительных средств, встречающихся в узбекском устном народном творчестве, в частности в дастанах. В статье также освещаются научные взгляды Абдулла Кодиря о том, что изобразительные средства, относятся не только к поэзии, но и к прозе. Автор пишет, что тюркский язык, в частности, узбекский язык является одним из первых трёх появившихся на земле языков мира и что образность и художественность данного языка особая. В качестве вывода утверждается, что Абдулла Кодиря является вторым после Алишера Навоий, кто в действительности поднял на наивысшую ступень художественную ценность узбекского языка.

Ключевые слова: *Абдулла Кодиря, национальный романизм, одушевления, изобразительных средств, поэзия, проза.*

Kirish qismi: Betakror yozuvchi Abdulla Qodiriy o‘z romanlarida badiiyatga xos barcha usullardan keng foydalangan. Yozuvchining asosiy yutug‘i o‘zbek xalq og‘zaki ijodi, ya’ni dostonlarimizda uchraydigan ko‘pgina badiiy san’atlarni bevosita nasrga olib kirganligidir. So‘z ustasi o‘sha paytgacha badiiy san’atlar faqat she’riyatga tegishli ekanligini e’tirof etgan g‘arb olimlarining ilmiy qarashlarini dalillar orqali rad etdi. Adib turkiy til, jumladan o‘zbek tilining dunyodagi ilk uch til [1:7]dan biri ekanligini, ushbu tildagi badiiyat o‘zgachaligini Alisher Navoiy hazratlaridan so‘ng yana bir bor amalda isbotlab berdi.

Ilmiy-nazariy adabiyotlarda **jonlantirish** san'atining she'riyatga xosligini asoslovchi misollar keltirilgan. *Jonsiz, mavhum narsalarga jonzot yoki insonga xos xususiyatlarni ko‘chirib tasvirlash usuli*. M.: *Nashvati der ko‘zini suzib, Men siz uchun, ko‘ringiz baham. Hech kimda yo‘q mening oltin tusim. Tilla bilan baravar bahom* (Uyg‘un) [2:39].

Buyuk o‘zbek adibi Abdulla Qodiriy “O‘tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon” romanlarida badiiy san’atga oid jonlantirish usulidan foydalangan holda go‘zal va beqiyos tasvirlar yaratdi.

1. **Piyola**. M.: *Bitta toqchadag‘i cheti uchkan, qoni qochqan uch to‘rtta piyola va bir qora qumg‘onni, ikkinchi toqchadag‘i umrida yuvinib ko‘rmagan qora mis barkashni, bo‘sh qoziqlar ko‘ngli uchun osilg‘an bittagina kir dasturxonni tilga olish bilan bu havlining butun jihaz-amloki ro‘zg‘orini yozib chiqilg‘an bo‘linur...*[3:175]

2. **Maviz** (may). M.: *Bu gal uncha qistatishqa to‘g‘ri kelmadi, birinchi piyola bilan uning ko‘z o‘nglari jimirlashmakka va o‘zida bir yengillik his etmakka boshlag‘an va bu ikkinchi piyola go‘yo “meni ichsang tag‘in ham yengil tortasan”, der edi* (190-bet).

3. **Dutor**. M.: *Dutor quruqqina yig‘lomas edi, balki butun koinotni zirr etdirib va xasta yuraklarni dirr silkitib yig‘lar edi...* (215-bet).

4. “**Navo**” kuyi. M.: *Biroq hozirgi ixtiyor o‘zida emas edi – hamma ixtiyor dutorning hazin “Navo”sida, toqatsiz yig‘isida edi...* (215-216-betlar).

5. **Dutor**. M.: *O‘z dardiga tushungan bu yigitka borg‘an sayin dardini ochib so‘zlar, yig‘lab va ingrab so‘zlar edi...* (216-bet).

6. **Yurak**. M.: *Lekin Marg‘ilon darbozasidan kirishi ila uning holi o‘zgarib boshlar, yuragi qinidan chiqar darajada o‘ynamoqqa olur, ayniqsa poyafzal rastasiga yaqinlashgach, uning bu iztirobi shiddatlanur,...* (217-bet).

7. **Xat**. M.: *Bu ikki xat birinchi qarashda-yoq ikki kishi tomonidan yozilg‘anliqlarini o‘z og‘izlaridan so‘zlab turar edilar* (265-bet).

8. **Karruk** qushi. M.: *Anovi ar-ar terakka uya qo‘yishg‘a o‘ylag‘an bir juft karruklar ham vijir-vijir qilishib kengash ochdilar* (284-bet).

9. **Guppi**. M.: ...*shu guppi* butun umrida birgina martaba va shunda ham maxdumdan beruxsat ammo, Nigor oyimning zo‘ri bilan tog‘orag‘a **tushib cho‘mildi** (389-bet).

10. **Guppi**. M.: Bu kunda bo‘lsa to‘rt yil **burung‘i g‘usli**, yetti yillik tusi, turlik-turlik yamog‘i bilan sakkizinchi qish maxdum pochchasig‘a **sodiqona xizmat qilish uchun bo‘g‘joma ichida o‘ziga kuch yig‘ib yotadir** (389-bet).

11. **Guppi**. M.: Mahalla kishilari maxdumning bu choponig‘a “**moltopar**” deb ism berganlar, *guppi* kiyilib chiqilg‘an kun maxdumga sezdirmay “**moltopar savdodan qaytibti...** hali baquvvat, ish qilib yamoqqa charchamasang yana o‘n yillingmi, Mamarayim!” deb kulishadirlar (389-bet).

12. **Adras guppi**. M.: Mahalla kishilari banoras to‘nni “zarurat” deb atag‘an bo‘lsalar ham, **adras guppiga** hali nom qo‘yg‘uncha yo‘qlar, chunki buning **dunyog‘a kelganiga** faqat to‘rt-besh yilgina bo‘lg‘andir (389-bet).

13. **Manti**. M.: – Choklari **diqqat bilan chimtilgan, to‘rt burchagi ikkiga qovishtirilg‘an, do‘ndiq...** tanimaydi, deb o‘ylaysanmi? Men nuqul sen tukkan mantilarni tanlab yedim...(432-bet).

14. **So‘ri**. M.: Sufa ustidagi **so‘ri** har zamon to‘rt tomong‘a chayqalib, o‘z ostida o‘lturg‘uchilarning betlarini goh ko‘rsatib, goh yashirib, **ular bilan o‘ynashqandek tevarakka husayni g‘ujumlarini bir-ikki bora uzib tashladi** (474-bet).

15. **Suv**. M.: Ariqning musaffo tiniq suvi yovoshg‘ina oqib kelar, Kumushbibining qarshisig‘a yetkanda go‘yoki, **uning ta‘zimi uchun** sekingina bir charx urib qo‘yar, o‘z ustida o‘lturgan sohiraning sihriga musaxxar bo‘lg‘an kabi tag‘i bir kattaroq doirada aylangach, ohistag‘ina ko‘prik ostig‘a oqib ketar edi (31-bet).

16. **Suv tomchilari**. M.: Uning **yuzini o‘pib** tushkan **suv tomchilari** bilan ariq harakatka kelib chayqaldi, go‘yoki suv ichida bir fitna yuz bergan edi... (31-bet).

17. **Yel**. M.: Havo bulut, achchig‘, **sovuq yel to‘rt tomong‘a yugurar**, onda-sonda **qor uchqunlarini quvlab** ziriqtirar edi (39-bet).

18. **Sham’**. M.: Ikkisining orasidag‘i **sham’ yel bilan o‘ynashibg‘ina nur separ**, ikkisi ham so‘z qo‘yishqandek sham‘ga ko‘z tikib qanday o‘yg‘adir berilgandek ko‘rinar edilar (190-bet).

19. **Gilos og‘ochi** (daraxt). To‘rt tomonining o‘ralg‘anlig‘i soyasida yaproqlarini to‘kilishdan saqlab qolg‘an bu **gilos yog‘ochlari** ham bu kun tungi qora sovuqqa chidalmay, yelning ozg‘ina harakati bilan-da **barglarini shirt-shirt uzib tashlamoqda edilar** (209-bet).

20. **Quyosh**. M.: Oq bulutlar bo‘lg‘anliqdan quyoshning nuri uncha kesilmagan, **quyosh to‘r ro‘ymol ichida o‘lturg‘an kelinlar kabi yer yuziga suzilib qarar edi** (218-bet).

21. **Izg'iriq.** M.: *Bulutlarning ohistagina sayridan sezilar-sezilmas hafif bir shamol yurib, yengilgina bir izg'iriq ham yuzga kelib to'qunar, bu izg'iriq kishiga uncha rohatsizlik bermasa-da,...* (218-bet).

22. **Oy.** M.: *Ular (boyqushlar) oy nuridan uncha xursand emaslar, chunki oy yer yuziga kulib qaray boshlasa, ular boshlarini kaftlari ichiga oladirlarda, dum-dumaloq bo'lib siqilib ketadirlar* (221-bet).

23. **Quyosh.** M.: *Bu kun quyosh ochiq havoda kezishi uchun jim-jim tovlanib, yer yuziga kulib qaradi* (284-bet).

24. **Shamol.** M.: *Boyag'idan bir muncha kuchayatushkan shamol gulni gulga quvishtirib, go'yo bu ikki yoshg'a: "Siz ham man shu gullar kabi qovishing" degandek bo'lar edi* (473-bet).

25. **Oy nuri.** M.: *Birinchi martaba kungira yonig'a chiqquchi emaklab yurib atrofni tekshirdi, tekshirguchining betiga oy nuri sepilib, tanish bir yuz – Safar bo'zchi zohir bo'ldi* (626-bet).

Ulug' yozuvchimiz Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon" romanlarida badiiy san'atga xos **tashxis** [4:38] usulini qo'llagan holda beqiyos tasvirlar ijod qilgan. Mumtoz adabiyotlarda tashxis usuli qo'llangan bo'lib, unda ham insoniy holatlarning boshqa narsalarga ko'chishini ko'rishimiz mumkin. Tashxis (*shaxslantirish*) faqat *insonlargagina xos bo'lgan jismoniy va ruhiy holatlarni* tabiat manzaralari, jonzotlar, borliqdagi narsa-buyumlar hamda hayotiy tushunchalarga ko'chirish san'ati. M.: *"Tarab tiflin tug'urdi dahir zoli, Ango bo'ldu magar kim doya navro'z"*. (Ma'nosi: *dunyo kampiri shodlik chaqalog'ini tug'arkan, navro'z unga doyalik qildi*. Shu baytning o'zida uchta tashxis bor: (*tushuncha*) **shodlik** tiful//chaqalog'ini (*borliq*) **dahr** zol//kampiri tug'moqda, (*tabiat*) **navro'z** unga doyalik qilmoqda. Ushbu usul g'arb adabiyotida **personifikatsiya** [2:80] (lotincha "persona" – "shaxs"; "facio" – "qilaman") deb nomlangan bo'lib, shaxslantirish san'tiga mos keladi.

1. **Saroy.** M.: *Saroy ahli kunduzgi ish kuchlaridan bo'shab hujralariga qaytqanlar, ko'b hujralar kechlik osh pishirish ila mashg'ul, shuning uchun kunduzgiga qarag'anda saroy jonliq: kishilarning shaqillashib so'zlashishlari, xoxolab kulishishlari saroyni ko'kka ko'targudek.*[3:7]

2. **Tabiat.** M.: *Shu vaqt ko'rpani qayirib ushlagan oq nozik qo'llari bilan latif burnining o'ng tomonida, tabi'atning nihoyatda usta qo'li bilan qo'ndirilg'an qora xolini qashidi va boshini yostiqdan olib o'turdi* (29-bet).

3. **Ariq bo'yi.** M.: *Kumushning dardini hech kim bilmas, uning xayoliga hech kim tushunmas, magar shu ariq bo'yi tushungandek, bilgandek...* (50-bet).

4. **Ariq bo'yi.** M.: *Sirlik ariq bo'yi unga nimalarnidir so'zlar, undan nimalarnidir tinglar, bunga chetdan hech kim voqif bo'la olmaydir-da, bo'lmog'i ham mumkin emas* (51-bet).

5. **To‘y**. M.: *Tashqarida bir qo‘sha sozandalar dutor, tanbur, g‘ijjak, rubob, nay va amsoli sozlar bilan dunyoga jon suvi sepib shaharning mashhur hofizlari ashula aytadirlar. To‘y juda ham ruhlik...*(51-bet).

6. **Ko‘klam** (bahor). M.: *Hozir ko‘klam kunlari: qirlar, tog‘lar, soylar; ko‘k-qizil, oq-qora, sariq-zangor, pushti-go‘las va tag‘in allaqancha ranglik chechaklar bilan ustlarini bejab, qishi bilan to‘nggib arang yetishkan oshiqlarig‘a yangi hayot, yangi umid beradilar* (138-bet).

7. **Ayvon**. M.: *Tutunlar bilan ayvon deganimiz qob-qora is, go‘yo ayvon bo‘lg‘anig‘a ond ichmakda* (174-bet).

8. **Yer yuzi**. M.: *Daraxtlardagi sariq barglar to‘kilib tugalgan, yer yuzi o‘zining qishqi sariq kiyimini kiygan edi* (209-bet).

9. **Qora sovuq**. M.: *Havo ochiq bo‘lib, quyosh tuzukkina ko‘tarilgan, ammo uning o‘zi ham bu kun uncha ta‘siri yo‘q, bu kungi qora sovuq quyosh kuchini-da keskan edi* (209-bet).

10. **Bo‘zaxona**. M.: **Bo‘zaxona tinchigan edi**. *Qo‘lma-qo‘l yurib charchag‘an mashshoq ham bo‘shab, Otabekdan katta-katta ehsonlar ko‘rgani uchun, vaqtning kechligiga ham e‘tibor qilmay kirgan edi* (214-bet).

11. **Umid gulzori**. M.: *“Navo” bilan yuvilib ketkan uning umid gulzorida yangi chechaklar unib chiqdi...* (216-bet).

12. **O‘rus istibdodi**. M.: *Biz shu holda ketadigan, bir-birimizning tegimizga suv quyadirg‘an bo‘lsaq yaqindirki, o‘rus istibdodi o‘zining iflos oyog‘i bilan Turkistonimizni bulg‘atar va biz bo‘lsaq o‘z qo‘limiz bilan kelgusi naslimizning bo‘ynig‘a o‘rus bo‘yindirig‘ini kiydirgan bo‘larmiz* (294-bet).

8. **Qora sovuq, izg‘iriy**. M.: *Qishning oxirg‘i kunlari, ko‘chada qora sovuq bilan izg‘iriy yurar edi* (584-bet).

9. **Yurak**. M.: *Anvarning qarashidag‘i ma‘noga tushungan Sultonalining yuragi suv bo‘lib oqdi va hushsiz, hissiz, Anvar ko‘zdan yo‘qolg‘uncha qarab qoldi...* (624-bet).

Xulosa sifatida shuni aytish joizki, mashhur yozuvchi Abdulla Qodiriy “O‘tkan kunlar” va “Mehrobdan chayon” romanlarida badiiyatga oid jonlantirish va tashxis tasvir usullari o‘rinli qo‘llagan. Nasr ustasi bo‘lgan o‘zbek xalqining sevimli ijodkori Abdulla Qodiriy xalq og‘zaki ijodimizdagi ko‘plab badiiy usullarni o‘zbek nasrida qayta jonlantirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 16-жилд. Тошкент: “Фан”. 2000, 245 бет.
2. Азим Ҳожиёв. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: “ЎзМЭ”, 2002. 164 бет.

3. Абдулла Қодирий. Рўмонлар. Ўткан кунлар. Меҳробдан чаён. – Тошкент: “Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат”, 1994. 653 бет.
4. Анвар Ҳожиаҳмедов. Шеърӣ санъатлар ва мумтоз қофия. – Тошкент: “Шарқ”. 1998. 158 бет.
5. Lafasov U. P. The King of Uzbek Prose //International Journal of Psychosocial Rehabilitation. – 2020. – Т. 24. – №. 05.
6. Lafasov U. ORIGINAL MEANINGS OF SOME ETHNONYMS IN SOURCES //Oriental Journal of Philology. – 2021. – Т. 1. – №. 02. – С. 69-74.
7. Lafasov U. P. BASICS OF LANGUAGE SCIENCE AMONG UZBEKS //Oriental Journal of Education. – 2022. – С. 9-12.
8. Lafasov U. " SCORPION FROM THE ALTAR" IS A REFLECTION OF ASCETICISM IN THE NOVEL //Oriental Journal of Social Sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 04. – С. 27-33.
9. Lafasov U. P. Genius of Uzbek Art //European Journal of Learning on History and Social Sciences. – 2024. – Т. 1. – №. 2. – С. 99-104.
10. Lafasov U. P. Genius of Uzbek Art //European Journal of Learning on History and Social Sciences. – 2024. – Т. 1. – №. 2. – С. 99-104.
11. Lafasov U. P. ABDALLAH QADIRI’S NOVELS USING THE METHOD OF METONYMY //SPAST Abstracts. – 2023. – Т. 2. – №. 02.
12. Hamidov, Xayrulla, and Marxabo Abdullayeva. "Alternative Versions and Functional Characteristics of Phraseologists in Uzbek." *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION* 4.3 (2024): 51-54.
13. Hamidov, Xayrulla, and Marxabo Abdullayeva. "FRAZEOLOGIZMLARNING O ‘ZBEKCHA MUQOBIL VARIANTLARI VA FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI." *Konferensiyalar/ Conferences*. Vol. 1. No. 8. 2024.
13. Sadikova, Shirin Baxtiyorovna, and Iroda Mahmudjanovna Jalolova. "XORIJIY TILNI O ‘QITISHNING BOSHQA FANLAR BILAN ALOQASI." *Konferensiyalar/ Conferences*. Vol. 1. No. 8. 2024.
14. Sadikova, Shirin Baxtiyorovna, and Iroda Mahmudjanovna Jalolova. "XORIJIY TILNI O ‘QITISHNING BOSHQA FANLAR BILAN ALOQASI." *Konferensiyalar/ Conferences*. Vol. 1. No. 8. 2024.